

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI O'RNI

Yadgarova Nigora Rixsulla qizi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti

E-pochta: ishanova.nigora@gmail.com

ROLE OF SMALL BUSINESS SUBJECTS IN FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY

Yadgarova N. R.

Doctoral student of the Institute of Personnel Training and Statistical Research of the Statistical Agency under the President of the Republic of Uzbekistan

Email: ishanova.nigora@gmail.com

РОЛЬ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА ВО ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Ядгарова Н.Р.

Докторант Института подготовки кадров и статистических исследований

Агентства по статистике при Президенте Республики Узбекистан

Email: ishanova.nigora@gmail.com

Kirish. Iqtisodiyotning eng mobil tarkibiy qismi hisoblangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hisobiga, aynan shiddatli raqobat sharoitida mamlakat eksport salohiyatini faollashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun muvaffaqiyatli va raqobatbardosh korxonalar (ayniqsa innovatsion va yuqori texnologiyalarga ega bo'lgan mahsulotlar yoki xizmatlarni ishlab chikaruvchilar)ni rag'batlanirish, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasiga jalb qilish, ularning eksport salohiyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, xodimlarning tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi malaka va bilimlarini oshirish zarur. Shunday qilib, xalqaro miqyosda mahsulot eksporti hajmini oshirish iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'naliishi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlanish bosqichlarini o'rganish yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, tadbirkorlik faoliyati XVI asrdan boshlab, iqtisodchi olimlar diqqat e'tiborida bo'lib kelgan. Tadbirkorlik va innovatsiya faoliyati nazariyasiga muhim hissa qo'shgan avstriyalik iqtisodchi Y. Shumpeter "tadbirkorishlab chiqarish omillaridan foydalanishning yangicha kombinatsiyalarini amalga oshiradigan va shu bilan iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlaydigan kishi"[1], deb ta'kidlaydi.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

Mahalliy olimlardan akademik S. G'ulomov tadbirkorlikga uni marketing va innovasiya faoliyati bilan bog'lagan holda: "tadbirkor shunday insonki u pul mablag'lari, materiallar va ishchi kuchini jamlashtirib, yangi mahsulot, yangi biznes, yangi ishlab chiqarish jarayonini tashkil etadi"[5], deb ilmiy ta'rif bersa, M.S. Qosimova va M.A. Yusupovlar "kichik biznesning samaradorligini ko'p jihatdan uning boshqaruvi tizimi mukammalligi bilan uzviy bog'liqdir"[6], deb talqin etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eksport salohiyatini oshirish eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga keng urg'u berish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish borasidagi o'zgarishlar yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ko'proq bozor sharoitlariga moslashgan, ular moslashuvchan boshqaruvi tizimiga ega, lekin yirik korxonalarga o'xshab katta moliyaviy, iqtisodiy va ishlab chiqarish quvvatiga ega emas. Bunday muammo O'zbekistonning chekka viloyatlarida keng tarqalgan, ayniksa, ular sifati past, xalqaro standartlarga mos kelmaydigan, qayta ishslash darajasi yuqori bo'limgan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalaridir.

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport hajmi 2023 yilda 8123,3 mln. AQSh dollarini tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval

Mahsulot turlari bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport dinamikasi (mln. AQSh dollari hisobida)

Mahsulot turlari	Yillar						2020 yil 2013 yilga nisbatan farqi
	20 13 yil	201 5 yil	20 17 yil	20 19 yil	20 21 yil	20 23 yil	
Paxta tolasi	15 72,7	125 9,7	10 47,7	63 7,3	22 2,1	14 6,9	-90,659
Oziq-ovqat mahsulotlari	12 60,5	878 ,2	16 75,6	69 4,5	10 97,8	14 43,8	14,542
Kimyo va undan tayorlangan mahsulotlar	66 1,3	764 ,1	64 3,7	84 1,1	90 5,3	40 8,8	-38,182
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	29 73,8	470 4,6	31 10,2	17 13,9	26 66,8	87 3,2	-70,637
Qora va rangli metallar	89 4,4	105 5,2	97 8,3	70 8,6	11 71,9	31 7,5	-64,501

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

Mashina va asbob-uskunalar	71 5,4	879 .7	54 6,3	22 0,7	21 2,8	44 2,0	-38,216
Xizmatlar	13 35,5	235 6,4	30 30,2	31 20,6	30 70,0	20 05,0	50,131
Boshqalar	36 09,8	170 1,7	25 13,7	41 58,0	46 44,0	24 86,1	-31,129

Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari asosan oziq-ovqat mahsulotlari, kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar, to'qimachilik mahsulotlari, metallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlarni hamda turli xizmatlarni eksport qiladi.

Eksport qilinadigan tovarlar hajmining sezilarli ulushi kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar, qora va rangli metallar hamda xizmatlar sohasiga to'g'ri keladi. 2023 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport hajmi mamlakatdagi barcha korxonalar tomonidan xorijga eksport qilinayotgan tovarlar umumiy hajmining qariyb 2,5 foizini tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan eksport qilinadigan mahsulotlarning katta qismi chuqur qayta ishlanmagan va yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lmagan xom-ashyolar hisoblanadi. Bunday vaziyat mamlakatda eksportga yuqori texnologiyali mahsulotlarni sotishga yo'naltirishga qaratilgan keskin choralar ishlab chiqishni talab etadi.

Hozirgi kunda "Eksport salohiyati" kategoriyasini belgilashda turlicha yondashuvlar mavjud. Eksport salohiyati tushunchasi ostida biz mavjud resurlarni yoki ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksport qilish imkoniyatini tushunamiz.

Eksport salohiyatini zamonaviy uslublar asosida o'rganib, sinflarga bo'lish mumkin. Bizning fikrimizcha, eksport salohiyatini 2 sinfga ajratish mumkin:

1) Tarkibiy – eksport salohiyatining tarkibiy elementlarini o'rganib, olingan natijalarga ko'ra;

2) Qiyosiy – raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarning ish faoliyatini baholab, eksport salohiyatini taqqoslash asosida olingan natijalarga ko'ra.

Ekspertlarning fikricha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyati mavjudligini ko'rsatuvchi asosiy mezonlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- korxonalarning ishlab chiqarish resurslarining yuqori darajasi;
- korxona xalqaro standartlar muvofiqligiga sertifikatlangan mahsulotlarning umumiy hajmi bo'yicha olingan mahsulotlarining nisbiy yuqori ulushi;
- korxona faoliyatini axborot bilanta'minlanishining yuqori darajasi va boshqalar.

XULOSA VA MUNOZARA

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

Yaqin kelajakda eksportga yo'naltirilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashning istiqbolli sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun ehtiyoj mavjud bo'lgan xizmatlar infratuzilmasini yaratish va rivojlantirish;
- mamlakatda eksportga yo'naltirilgan korxonalarni rivojlantirish va faollashtirish sohasida yagona siyosatni amalga oshirishda mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linmani shakllantirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni yanada takomillashtirish;
- soliq siyosatini erkinlashtirish asosida davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash.

Xulosa qilib aytganda ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirishga, umuman olganda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shumpeter J. Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi. Per. ingliz tilidan – M.: Taraqqiyot. 2012. – B. 169-183.
2. Xizrich R., Peters M. Tadbirkorlik. //Nashr 1 – M.: 2011. – B.20.
3. Drucker P. Market: qanday qilib diler bo'lish mumkin. Amaliyot va tamoyillar. – M.: 2012. – B.98.
4. Sinyaev I.M. Zemlyak S.V., Sinyaev V.V. Biznesda marketing. – M.: Dashkov va K0, 2018. – B. 158.
5. G'ulomov S.S. tadbirkorlik va kichik biznes. T.:2018. – B. 32.
6. Qosimova M.S., Shodibekova D.A., Yusupov M.A., Samadov A.N. Kichik biznesni boshqarish. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2015. – B 61.